



## DAVLATSHOH SAMARQANDIYNING “TAZKIRAT USH-SHUARO” TAZKIRASIDA MODIH SHOIRLAR

**Muallif:** Madina Abruyeva<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti talabasi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20207220>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” tazkirasida alohida o‘rin egallagan hamda o‘z davri haqida muhim ma‘lumotlar bera oladigan modih shoirlar ta‘rifi keltiriladi. Shuningdek, bu shoirlarning hukmdorlar bilan munosabati, podshohlarning shoirlarga qay darajada ahamiyat berishi Amir Temur va temuriylar davridagi shuaro misolida tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Davlatshoh Samarqandiy, tazkira, modih, shoir, qasida, Navoiy, sulton.

### KIRISH

O‘zbek mumtoz adabiyoti asrlar davomida xalqimizning ma‘naviy olamini boyitib kelayotgan bebaho merosdir. Bu merosning muhim qismini tazkiralarning tashkil etadi. Tazkiralarning nafaqat shoir va adiblarning hayoti hamda ijodi haqida ma‘lumot beruvchi manba, balki o‘z davrining adabiy muhitini aks ettiruvchi muhim tarixiy-adabiy hujjat hamdir. Ana shunday nodir asarlardan biri - Davlatshoh Samarqandiy qalamiga mansub “Tazkirat ush-shuaro” tazkirasidir. Ushbu asar Sharq adabiyotshunosligida o‘ziga xos o‘rin egallab, unda ko‘plab shoirlar, jumladan, modih (madh etuvchi) shoirlar faoliyati keng yoritilgan.

Modih shoirlar – o‘z ijodida hukmdorlar, amaldorlar yoki muayyan shaxslarni madh etishga alohida e‘tibor qaratgan ijodkorlardir. Ularning asarlari orqali nafaqat adabiy til va uslub, balki o‘sha davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhiti haqida ham tasavvur hosil qilish mumkin. Tazkirat ush-shuaro ana shu jihatdan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur tazkirada VII–XV asrlarda yashab ijod etgan 150 dan ortiq shoir haqida ma‘lumot berilib, ularning hayoti va ijodi yoritilgan. Asar muqaddima, yetti bob va xotimadan iborat bo‘lib, katta tarixiy davrni qamrab oladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, modih shoirlar, asosan, hukmdorni madh etayotganda qasida janridan unumli foydalanishgan. Qasida arabcha “maqsad”, “niyat” ma‘nolarini bildirib, biror tarixiy shaxs yoki voqeaga bag‘ishlab yoziladigan katta hajmli she‘r turi hisoblanadi. Qasidalar hajman 12 baytdan bir necha yuz baytgacha bo‘lishi mumkin.

Qasida g‘azal singari a-a, b-a, d-a, e-a... tarzida qofiyalanadi. Ayrim hollarda masnaviy singari qofiyalanishi ham mumkin. Qasida tuzilishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

1. Qasidai tom (to‘liq qasida) – bunda qasida to‘rt qismdan tarkib topadi:



- a) nasib – lirik kirish (tabiat tasviri);
- b) g'urizgoh – nasib bilan madhni bog'lovchi, 4–5 baytdan tashkil topuvchi qism;
- c) madh – asosiy qism;
- d) qasd – mamduh (madh etilayotgan shaxs)ga niyat va istaklar bildirilgan qism.

2. Qasidai mujarrada (chala qasida) – bunda faqat madh keltiriladi.

Qasidalar mavzusiga ko'ra vasf, madh, hajv, marsiya, munojot va falsafiy qasidalarga bo'linadi. Turkiy adabiyotdagi ilk qasida "Devonu lug'otit turk"da "qo'nug" shaklida uchraydi. (8;319)

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Davlatshoh Samarqandiyning Tazkirat ush-shuaro tazkirasining Temur va temuriylar zamonida o'tgan shoirlar uchun ajratilgan tabaqasida (VI-VII) modih shoirlar zikri ham keltirilgan. Bu shoirlardan biri Xoja Ismatullo Buxoriydir. U XIV-XV asrning yirik shoirlaridan bo'lib, ko'pincha qasida, g'azal, masnaviy va ruboiyda qalam tebratgan. She'rlarida pok muhabbat, mehnat va insoniylikdan bahs yuritadi. U Buxoroda zullisonayn an'anasini boshlab berdi, hajv janri rivojiga hissa qo'shdi. Navoiy "Majolis un-nafois" u haqida bularni yozgan: "... zohir ilmuni takmil qilg'ondir. G'oyat xushta'bligidin o'zin she'rga mansub qilib, devoni mashhur bo'ldi". Xoja Ismatulloning sakkiz ming baytli devoni va 1035 baytdan iborat o'zbek tilidagi "Ibrohim Adham" dostoni bizgacha yetib kelgan. Jumladan, ikki devon nusxasi va qasidalar to'plami O'zFASHIda saqlanmoqda.

Tazkiraning Xoja Ismatullo faslida u oliy zotligiga qaramasdan, shoirlik shevasida – xoh qasidago'ylik va g'azaliyotda, xoh masnaviy yoki muqta'otda ma'lum, mashhur va mohirdir, deya ta'riflanadi.

Xoja Ismat olam podshosi Ulug'bek ko'ragon hukmronligi davrida hokimlarni madh etishni tark etadi. Ammo nomi zikr etilgan podshoh undan she'r aytishni yalvorib so'ragach, zaruratdan u sulton madhiya bir necha qasida yozgan. Oxiri she'r yozmay qo'ygani ma'lum. Shunday bo'lsa ham, u sharofatli zotning majlisi shoirlar tilagi va fozillar to'lanadigan joy bo'lib qoladi.

Navbatdagi shoir XV asrning yetuk namoyandalaridan Mavlono Badaxshiydir. Ulug'bek Mirzo davrida Samarqandda istiqomat qilgan. Navoiy "Majolis un-nafois"da Badaxshiy iste'dodiga yuksak baho bergan. Tazkirada keltirilishicha, Mavlono Badaxshiyning Mirzo Ulug'bek madhida aytgan pokiza qasidaları bor. "Oftob" radifli qasidasi shoir mahorati va fe'li muloyimligidan guvohlik beradi. Mana bu ikki bayt o'sha qasidada:

Qaro zulfing qaro tundek to'sibdir oftobni,  
 Solib tun soya, kim ko'rdi, to'sibdir oftobni?  
 Soching zog' bo'lsa gar qaytdim humoyun topsin in,  
 Balanddir qomating sarvi, to'sibdir oftobni. (3;167)

XIV asr oxiri va XV asr birinchi yarmida yashagan lirik shoir Bobo Savdoyi Abivardiydir. Shoir haqida tazkiradan tashqari Navoiyning "Majolis un-nafois" hamda Vosifyning "Badoyi ul-vaqoye" asarlarida ma'lumot bor. Bobo Savdoyi asli Abivarddan. Xushchaqchaq, ahli dil kishi ekanidan, podsholar va hokimlar izzat-ikrom qilganlar. Ba'zilarining so'zlariga ko'ra, shoir ahli viloyat odam ekan. Avval "Xovariy" taxallus qilgan. Keyinchalik jazavasi tutib, bir qancha yil yalong'och Xovaron dashtida kun kechirgan. Shu sabab, "Savdoyi" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Hikoyatda keltirilishicha, Abivard ahli Joni Qurbonoy xalqidan bag'oyat zahmat chekar edi. Bir necha bor Shohruh sulton oldiga ulardan shikoyat qilib bordilar, lekin foydasi bo'lmaydi, chunki bu xalq kuchli hamda qudratli edi. Qolaversa, ularning sardori sulton oldida yuqori martabaga ega edi. Joni Qurboniy xalqi Sukkon qishlog'i (Abivarddagi) ekinlarni poymol qilar edilar. Bobo Savdoyi o'sha xalq xususida bir qasida bitib, boshida sulton Shohruhni madh etdi, shundan so'ng Joni Qurboniy xalqidan shikoyat chekdiki, Shohruh sulton o'sha xalqni tutish (va jazolash) bilan mashg'ul bo'ldi. Bobo Savdoyi yozgan o'sha qasidaning bir qismi budir:

Joni Qurbon kengashidan bo'ldi yurt vayron,  
Qildi badtar bir qurultoy Muhammad To'qon.  
Quv bu dushman qavmini, ey, podshohi odil,  
Yo qil falak yanglig' Kelot tog'ini vayron. (3;171)

Qolaversa, Bobo Savdoyining yirik shoirlarga javoban yozgan pokiza qasidalarini ham mashhur va uning muloyimligi, xushta'bligi xos-u avom orasida mazkur bo'lgan.

XV asr iste'dodli shoirlaridan Sohib Balxiy she'riyatning g'azal va qasida janrlarida qalam tebratgan "Mavlono Sohib Balxiy, – deb hikoya qiladi Navoiy, "Majolis un-nafois"da, – bovujudi she'r fanida mahoratli kishi erdi. O'z g'azallarini o'z amallariga bog'labdurkim, aning fazoyilig'a dalolat qilg'ay. Ul jumladin, "Chahorgoh" amalidurkim, mashhurdir. Va xoja Salmonning masnu qasidasig'a javob debturkim, undan ko'p iste'dod ma'lum bo'lur va yana bir qasidasi javobida bu matlai xo'b voqedurkim:

Ey, qaddi qomatingdan bo'ldi ro'zi qiyomat,  
Rost bo'lsa gar qiyomat qadding o'zi qiyomat. (3;178)

Navoiy uning o'z g'azaliga o'zi kuy bastalab, yig'inlarda aytib kun kechirgani, "el oldida izzat-hurmati kamroq" ekanligini ham aytadi. Shunga qaraganda, Sohib Balxiy Sharifiy o'z iste'dodini tirikchilik yo'lida sotib kun kechirgan shoirlar jumlasidandir.

Xoja Mahmud go'zal she'rlar yozgan shoir edi. U she'riyatda yuksak darajaga yetdiki, uni ta'riflab bo'lmaydi. U amirzoda Alloudavla davrida Nishopurda bo'lgan va keyinchalik Mashhadga kelgan. Sulton Abu Said 861-yilda Hirotdagi Bog'i Zag'onda katta ziyofat uyushtiradi. Bu ziyofatning mukammalligi ta'riflab bo'lmas darajada edi. Shoirlar bu haqida ko'plab she'rlar yaratganlar. Shuningdek, Xoja Mahmud quyidagi qasidani ham yaratgan:

"Sidra sizning yuksak darvozingizning ostonasiga va osmon sizning soyaboningizdan bir kamardir. Sizning ziyofat va ichimlik yig'ilishlaringizda Iram bog'ining zavqi bor" (5;579). Shundan so'ng tazkirada Abu Saidning ta'rifi boshlanadi.

Qanbariy Nishopuriy oddiy xalqdan. She'riyat unga Xudoning sovg'asi va yo'l-yo'rig'idir. Uning qasidalarini juda ajoyib va mazmunli. Fazilatli odamlar uning she'r yozishdagi kuchiga qoyil qolishadi. Ular shoirga buyuk ijodkorlarning qasidalariga nazira yaratish imkoniyatini taklif qilishdi va u yaratgan naziralarni yanada mukammal deb topishdi. U umrining so'nggi yillarini Mashhad-i Rizoda o'tkazgan va vaqti-vaqti bilan Hirotda tashrif buyurgan. Qanbariy Nishopuriy Abulqosim Bobur haqida ajoyib qasidalar yozgan. Shuningdek, yana bir shoir, Tuti Turshizi ham Abulqosim Boburni madh etib qasidalar bitgan.

Xurosonlik shoir Mavlono Tusiy edi. Hech kim oddiy maqollarni u kabi chiroyli ifoda etmagan. U yoqimli xulqli va yaxshi suhbatdosh bo'lgan. Biroq, oddiy xalq yuqori tabaqa vakillari nazarida qadr-qimmatga ega bo'lmagani uchun uning maqollari ham befoyda. Tusiy Sulton Bobur davrida katta shuhrat qozongan. Bu sulton uni juda

hurmat qilgan. U o'zining "Selvi" radifli qasidasini Sulton Bobur sharafiga bag'ishlagan.

Sohibul-Balxiy iste'dodli va fazilatli inson bo'lgan. U tibbiyot va musiqa kabi fanlarni yaxshi bilardi va she'riyatda ham mohir edi. U Badaxshon shohlari hamda Termiziy sayyidlari uchun ajoyib maqtovlar yozgan. Tazkirada uning sayyidlar sultoni amir Sayyid Ali Akbar at-Termiziyini ulug'lab yozgan bayti keltirilgan.

Xoja Fahriddin Avhad o'zining ko'plab fazilatlaridan tashqari, yetuk shoir ham edi. Uning devoni qasidalar, muqattaot va g'azallardan iborat. "Tazkirat ush-shuaro"ga bitta qasida va bitta to'rtlik kiritilgan. Ushbu yagona qasida insoniyat va jinlar imomi Abul Hasan Ali ibni Muso ar-Rizo haqida. Shuningdek, unda astronomiyaga oid ko'plab so'z va iboralar ham mavjud.

Yusuf Amiriy taniqli shoirlardan biri. U Shohruh hukmronligi davrida shuhrat qozongan va sharafli hamda shonli hayot kechirgan. Davlat amirlari va amaldorlari uni juda hurmat qilishgan. U nafaqat buyuk sulton Shohruh haqida, balki uning katta o'g'illari hamda amirlari haqida ham qasidalar yozgan.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, tazkirada modih shoirlar nafaqat hukmdorlarni ulug'lovchi shaxslar, balki o'z davrining siyosiy va ijtimoiy manzaralarini she'riyat bilan muhrlovchi ijodkorlar sifatida namoyon bo'ladi. Davlatshoh Samarqandiy qasidavislar hayotini yoritir ekan, ularning hukmdorlar bilan munosabati, saroydagi mavqeyi haqida qimmatli ma'lumotlarni berib o'tadi. Bu ma'lumotlar o'sha davrda adabiyotga bo'lgan yuksak homiylik darajasini va she'riyatning davlat mafkurasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ahmedov B. Davlatshoh Samarqandiy. – Toshkent, 1967.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik. XIII tom. Majolis un-nafois. – Toshkent, 1997.
3. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni ("Tazkirat ush-shuaro"dan). – Toshkent, 1981.
4. Davlatshohi Samarqandiy. Tazkiratu-sh-shuaro. – Xo'jand: Noshir, 2015.
5. Devletshah. Şair tezkireleri. Pinhan yayincilik, 2011.
6. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). –Toshkent: Noshir, 2019.
7. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2023.
8. Sirojiddinov Sh. va b.q. Navoiyshunoslik (1-kitob). Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. 520 b.